

**SAMARQAND VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMI  
INFRATUZILMASINING MODERNIZATSIYASI: DAVLAT  
SIYOSATI VA HUDUDIY RIVOJLANISH OMILLARI**

**Yormamatov Shohboz Zafar o‘g‘li**

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

[yormamto@gmail.com](mailto:yormamto@gmail.com)

Mamlakatimizda islom dini uzoq asrlik boy tarix hamda madaniy meros obyektlarining mavjudligi asnosida turizm turlaridan biri hisoblanmish “ziyorat turizmi” jadal rivojlanishi va istiqbolida muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda ziyorat turizm obyektlarining hududiy joylashuvi va istiqbolida islom dini muhimligining bir qancha sabablari mavjud:

Tarixiy ahamiyati: O‘zbekistonda islom sivilizatsiyasining uzoq tarixiga ega, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar islom ta’limoti va madaniyatining ko‘zga ko‘ringan markazlari hisoblanadi. Bu shaharlarda muhtasham masjidlar, madrasalar va maqbaralar joylashgan bo‘lib, ziyoratchilar va sayyohlarni o‘ziga tortadi[5].

Diniy obidalar: O‘zbekistonda ko‘plab muhim islom diniy obidalari joylashgan, xususan tadqiqot obyekti bo‘lgan Samarqand viloyatidagi Imom al-Buxoriy, Imom Moturidiy, Hazrati Hizir, Ad-Daromiy, Hazrati Dovud, Dabusqala, Tayloq ota, Ruhobod maqbarasi, Bibixonim masjidi va Shoh-i-Zinda maqbaralari joylashgan. Bu ziyoratgohlar musulmon ahli uchun juda katta ma’naviy ozuqaga ega va butun dunyodan ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilarni jalb qiladi [1].

Madaniy meros: Islom din mamlakatimiz arxitekturasidan tortib milliy taomnomalar, musiqa va san’atigacha bo‘lgan madaniy merosining kichik elementlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu madaniy boyliklar viloyatning

islom sivilizatsiyasi tarixi va an'analarini batafsil anglash istagida bo'lgan musulmonlar uchun ziyoratgoh sifatidagi o'ziga xos joziba bag'ishlaydi[2].

Xususan respublikamizda turizm sohasi va uning turlarini hududlar kesimida rivojlantirish va infratuzulmasini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar tadrijiy ravishta Respublikamiz Prezidentining tegishli qaror va farmonlarining ijrosiga hamohang olib borilmoqda. Jumladan Respublikamiz Prezidentining joriy yilning 25-noyabr sanasidagi Samarqand viloyatiga tashrifi davomida, xalq deputatlari viloyat kengashi sessiyasida ishtirok etishi, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazildi. Davlat rahbari tashrif chog'ida viloyatda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, sanoat, turizm va ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlar bilan ham yaqindan tanishdi[1].

Prezident tashrifini odatdagidek Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qilishdan boshladi. Qur'on tilovat qilinib, duo o'qildi. Mazkur ziyoratgoh atrofida 570 milliard so'm mablag' evaziga yirik rekonstruksiya va infratuzilma ishlari amalga oshirildi.

1-rasm.

**Imom Buxoriy ziyoratgohi**



**Manba: Rasm internet manbalaridan olingan.**

Ushbu loyihalar doirasida quyidagi infratuzulma obyektlari barpo etish rejalashtirilgan:

- 1 ta to‘rt yulduzli mehmonxona,
- 2 ta uch yulduzli mehmonxona,
- 22 ta oilaviy mehmon uylari qurildi.

Ushbu turizm obyektlari to‘liq kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, hududni kompleks obodonlashtirish ishlari yakunlangan. 2026-yilgacha bo‘lgan davrda qo‘shimcha ko‘kalamzorlashtirish, piyodalar yo‘lkalari va avtoturargohlarni barpo etish rejalashtirilgan.

Prezident Imom Buxoriy majmuasini o‘zbek xalqining ma’naviy merosi va bunyodkorlik qudratining yorqin timsoli sifatida qayd etib, qurilish ishlarini sifatli yakunlash bo‘yicha mas’ullarga topshiriq berdi.

Davlat rahbari Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasida joylashgan Mahdumi A’zam ziyoratgohida olib borilayotgan keng ko‘lamli rekonstruksiya ishlari bilan ham tanishdi. Prezident joriy yilning mart oyidagi tashrifi

davomida ushbu loyiha bilan tanishgani, hozirda esa uning amaliy bosqichi olib borilayotganini ta’kidladi.

2-rasm.

**Prezident va masullar Mahdumi A’zam ziyoratgohida rekonstratura qilish ishlari bilan tanishmoqda.**



**Manba: Rasm internet manbalaridan olingan.**

Mahdumi A’zam asli hozirgi Namangan viloyati Kosonsoy tumanida tug‘ilgan, naqshbandiya ta’limoti rahnamolaridan biri bo‘lgan ulug‘ so‘fiy alloma sanaladi. Yoshligida Farg‘onada tahsil olib, Samarqandda Xoja Ahror Valiyning shogirdi mavlono Muhammad Qoziy qo‘lida pirlilik darajasiga yetgan. U tariqat ilmi bo‘yicha 30 dan ortiq asarlar yaratgan, ko‘plab shogirdlar tarbiyalagan[4].

**Mahdumi A’zam ziyoratgohida rekonstruksiyasi doirasidagi ishlar**

Ziyoratgohning umumiy maydoni 5 gektarni tashkil etadi. Bu hududda ziyoratchilar uchun zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida:

- uch qavatli avtoturargoh,
- kirish darvozasi,
- kushxona va ma'muriy binolar,
- tahoratxona,
- ming kishilik masjid,
- qo'shimcha ayvonlar qurilmoqda.

Mazkur rekonstrukturadan keyin majmua bir vaqtning o'zida 35 ming ziyoratchini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi (avval bu ko'rsatkich 5 ming edi). Shuningdek, hududda 40 dan ortiq savdo va servis obyektlari barpo etilishi rejalashtirilgan [1].

Tashrif chog'ida Qur'on tilovat qilinib, alloma ruhlariga bag'ishlab duo o'qildi. Prezident majmuada daraxt ekdi va bog' hududini yanada obodonlashtirish, ziyoratchilar uchun qulay infratuzilmalar yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Xulosa o'rnida, Samarqand viloyatida ziyorat turizmi infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Prezidentning 2024-yil 25-noyabr kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida Imom Buxoriy va Mahdumi A'zam majmualarida olib borilayotgan rekonstruksiya jarayonlari bilan tanishishi ziyorat turizmi sohasiga berilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ko'rinishidir.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Samarqand viloyatiga tashrifi yuzasidan bayonotlar va rasmiy axborotlar. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati, 2025.

2. Odilbekova Muxtasarxon Iqboljon qizi. Ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘llari. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 2 issue 22 (44) | ISSN: 2181-4163 |
3. Abdurahmonov A., Jo‘raev A. O‘zbekistonda ziyorat turizmi geografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Sattorov N., To‘laganov X. Ziyorat turizmi va uning infratuzilmasini rivojlantirish masalalari. // *Turizm va madaniy meros* jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–52.
5. Yormamatov Shohboz Zafar o‘g‘li “Imom buxoriy yodgorlik majmuasini ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyat”. Ózbekstan respublikası aymaqlarín turaqlí rawajlandírdíń geografiyalıq tiykarlarí atamasındađı respublikalıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya toplamı. 2025-y